

IJODIY PEDAGOGIKA: TA'LIM JARAYONIGA ZAMONAVIY YONDASHUV

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tomonidan 2025-yil 4-5-aprel kunlari Farg'ona viloyatida joylashgan Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabida **“Ijodiy pedagogika: ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuv”** mavzusida professor-o'qituvchilar, doktorant va mustaqil tadqiqotchilar, magistr va iqtidorli o'quvchi va talabalarning ishtirokida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazish va konferensiya materiallarini to'plam holatda elektron va bosma nashr ettirish rejalashtirilgan.

Konferensiyaning maqsadi: dunyo bo'ylab tadqiqotchilar, pedagoglar va amaliyotchilarni bir joyga to'plab, quyidagi mavzularda tadqiqot natijalari, tajriba va g'oyalarni muhokama qilish:

- 1. Ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlash malakasini shakllantirish va rivojlantirish usullari va strategiyalari***
- 2. Loyihaga asoslangan ta'lim: amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish***
- 3. Mezonlarga asoslangan baholash: maqsad va vazifalar***
- 4. Raqamli ta'lim muhitida XXI asr o'qituvchilari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar***

Yuqoridagi yo'nalishlardan tashqari ta'lim sohasiga oid mavzulardagi maqolalar ham qabul qilinadi.

Maqola topshirish bo'yicha yo'riqnoma: konferensiya mavzulariga oid ilmiy maqolalar, tezis va tahlillar, metodika tavsiyalar qabul qilinadi. Konferensiya materiallari IMRAD talablarga mos bo'lishi zarur;

Tezis: Sarlavha, muallifning ismi, aloqa ma'lumotlarini o'z ichiga olgan 250-300 so'zdan iborat tezis.

Maqola: maqolada ko'tarilgan muammoning mazmuni, tadqiqot usulining tavsifi, muallif tomonidan olingan ilmiy va amaliy natijalar va xulosalar hamda tavsiyalar qisqa va aniq bayon qilinishi, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, annotatsiya va kalit so'zlar ko'rsatilishi lozim.

Metodik tavsiya: Muallif, metod nomi, uning maqsadi, jarayoni, natijasi, baholashi va refleksiya ya'ni (muallifning darsda ushbu metoddan foydalanganda dars yuzasidan fikr-mulohazalari) yoritilgan bo'lishi talab etiladi.

Format: maqola matni A4 hajmda, yuqoridan va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm hoshiyaga, Microsoft Word matn muharririda, Time New Roman shrift, 12 o'lcham, 1,15 intervalda va 3-6 betdan iborat bo'lishi lozim.

Til: Maqolalar o'zbek, qoraqalpoq va ingliz tillarida topshirilishi mumkin. Konferensiya o'zbek va ingliz tillarida olib boriladi.

Muhim sanalar: Tezis, maqola, metodik tavsiyalarning topshirish muddati joriy yilning 1- martga qadar; qabul qilingan materiallar haqida xabarnoma yuborish joriy yilning 20-martga qadar davom etadi.

Maqola topshirish jarayoni: Tezislari, maqolalar va metodik tavsiyalar quyidagi z.ganiyeva@piima.uz e-mail pochta orqali qabul qilinadi.

Barcha maqolalar ikki tomonlama hakamlilik jarayonidan o'tadi va tanlangan maqolalar konferensiya materiallari to'plamida chop etiladi.

Aloqa ma'lumotlari: qo'shimcha ma'lumot yoki savollar uchun, konferensiya tashkiliy qo'mitasi a'zosining z.ganiyeva@piima.uz elektron pochta manzili yoki 71-207-20-17 (ichki raqam 161) telefon raqami orqali bog'lanishingiz mumkin.

Ilmiy yondashuvingiz va ta'limga oid yangi g'oyalaringizni kutamiz!